

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ

AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY

ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2025



BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Bosh muharrir o‘rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Farmonov To‘lqin Xayitmurodovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Tahrir hay‘atining xalqaro a‘zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog‘iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė - iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich - iqtisodiyot fanlari doktori, (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay‘ati:

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), prof.

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), prof.

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), prof.

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), prof.

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), prof.

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n, prof.

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n, dots.

Achilov Mashrab Ulug‘bekovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n, dots.

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

Yangiboyev Dilshod G‘ulomovich – i.f.f.d. (PhD).

Tojiboyeva Nafisa Raxmiddin qizi – i.f.f.d. (PhD).

Mardiyeu Nurali - i.f.n, dots.

Kuvnakov Xaydar Kasimovich - i.f.n, dots.

Siddikov Zaxid Tulkunovich – i.f.n, v.b.prof.

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n, dots.

Roziqov Jahongir Mustaqim o‘g‘li – i.f.f.d. (PhD), dots.

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich - q.x.f.d. (DSc), prof.

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc).

Abdiyev Fozil Rashidovich - q.x.f.d. (DSc).

Sattorov Maqsud Axtamovich - q.x.f.d. (DSc).

Yuldashov Nurbek Ergashovich - v.f.d. (DSc).

Xalilov Ilhom Mamatkulovich - b.f.d. (DSc), k.i.x.

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich - q.x.f.d. (DSc), dots.

Namazov Ixtiyor Choriyeovich - q.x.f.d. (DSc), prof.

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o‘g‘li - q.x.f.d. (DSc), dots.

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., k.i.x.

Atabayev Ma‘ruf Maxmudovich – q.x.f.n., prof.

Muxammadov Yo‘ldoshbek Akmal o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD).

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD).

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Elboboyev Abdug‘ani Shuxrat o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD).

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n., dots.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA‘LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma‘lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo‘jaligi
fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

Elektron nashr, 788 sahifa.
E‘lon qilishga 2025-yil
29-noyabrda ruxsat etildi..

Hamzaeva Dilfuza Samarovna

Ijtimoiy turizmning ommalashuvi va aholi farovonligini oshirishdagi o'rni: imkoniyatlar, muammolar va rivojlantirish yo'nalishlari.....288

Qosimjonov Ikromjon Qosimjon o'g'li, Raimberdiyev Samandar Sherzod o'g'li

Tijorat banklarida raqamli xizmatlarni rivojlantirish yo'llari.....297

G'aniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich

Barqaror tadbirkorlik modeli: raqamli iqtisodiyot sharoitidagi yangi yondashuvlar.....303

Xusan Atamuratovich Jo'raev

Using digital economy indicators in assessing tax capacity: Big Data, machine learning, and real-time fiscal monitoring capabilities.....309

Erkaev Akrom Normuhammadovich

O'zbekistonda raqamlashtirish va IT-parklar orqali iqtisodiyotini takomillashtirish.....315

Turg'unova Gulchexra Tulkinovna

Qishloq xo'jaligida texnik-texnologik salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirish yo'nalishlari (Andijon viloyati fermer xo'jaliklari misolida).....323

Kadirova Shakhnoza Ilhomovna

Scientific analysis, methodology and directions of improvement of economic potential management of industrial enterprises.....333

Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna

Tannarx kalkulyatsiyasi metodologiyasi: nazariy va amaliy yondashuvlar.....338

To'rayeva Muyassar Rasul qizi

Meva-sabzavotchilikni moliyalashtirishda kraudfandingning samaradorlik modeli: xalqaro tajriba va O'zbekiston imkoniyatlari.....345

Eshev Alibek Sabirovich, Erkinova Shaxina, Abdiyeva Zarnigor Jahongir qizi, Begaliyeva Mardona Ilhom qizi

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini boshqarishda statistik tahlil va menejment yondashuvlarining integratsiyasi.....353

Musaxonov Rustam Musaxon o'g'li

Resurslarga asoslangan yondashuv (RBV) va resurs ustunligi nazariyasi (RAT) ning qurilish materiallari sanoat korxonalarini boshqarishda raqobat strategiyalaridan foydalanishida tutgan o'rni.....361

Abdullaev O'tkir Abduraim o'g'li

O'zbekistonda dukkakli ekinlar ishlab chiqarish va eksport tendensiyalari.....368

Ergashev Giyos Bakhrom ugli

Theoretical principles of improving the agricultural product export system.....373

Bovaqulova Mavjuda Rakhimberdievna

Zamonaviy tashkilotlarda liderlik uslublari va korporativ madaniyat rivoji o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.....379

Irisboev Shokhrukhbek

Impact of small businesses on local economies in tourism destinations.....384

Dilmurodov Hasan Faxriddin o'g'li

Urug'chilik tizimi va importga bog'liqlikning agrar barqarorlikka ta'siri.....390

Xamitova Mavluda Sindarovna, Soatova Hilola Sodiq qizi

Urbanizatsiya va demografik o'zgarishlar: jahon tajribasi va O'zbekiston misolida.....395

Shakirova Madinaxon Gafurdjanovna

Tadbirkorlikning nazariy jihatlarini va innovatsion rivojlanishdagi roli: ilmiy-nazariy tahlil va konseptual yondashuvlar.....400

O'ZBEKISTONDA DUKKAKLI EKINLAR ISHLAB CHIQARISH VA EKSPORT TENDENSIYALARI

ABDULLAEV O'TKIR ABDURAIM O'G'LI

Toshkent davlat agrar universiteti
“Agrobiznesni boshqarish va logistika”
kafedrası assistenti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda dukkakli mahsulotlarni yetishtirish hajmlari hamda ularning eksport dinamikasiga oid amaliy tahlillar asosida tarmoqning o'rta va uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalari ilmiy jihatdan aniqlangan hamda tarmoqning xalqaro raqobatbardoshligini kuchaytirishga doir umumiy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: dukkakli ekinlar, eksport salohiyati va tashqi bozorlar, qayta ishlash va qo'shimcha qiymat, ichki talab va oziq-ovqat xavfsizligi, agro-ekologik rol, iqtisodiy diversifikatsiya va resurs tejamkorlik, agro-iqtisodiy o'sish va eksport drayverlari.

Аннотация. В статье на основе практического анализа объемов производства бобовых культур в Узбекистане и динамики их экспорта научно определены среднесрочные и долгосрочные тенденции развития отрасли, а также сформулированы общие выводы по повышению международной конкурентоспособности отрасли.

Ключевые слова: бобовые культуры, экспортный потенциал и внешние рынки, переработка и добавленная стоимость, внутренний спрос и продовольственная безопасность, агроэкологическая роль, экономическая диверсификация и ресурсосбережение, драйверы агроэкономического роста и экспорта.

Abstract. The article scientifically identifies medium-term and long-term trends in the development of the industry based on practical analysis of the volume of legume production in Uzbekistan and the dynamics of their export, and also formulates general conclusions on strengthening the international competitiveness of the industry.

Keywords: legumes, export potential and foreign markets, processing and added value, domestic demand and food security, agroecological role, economic diversification and resource conservation, drivers of agroeconomic growth and exports.

KIRISH

O'zbekiston qishloq xo'jaligi bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulot yetkazib beruvchiga aylanish kabi ikki ustuvor vazifani bir vaqtning o'zida amalga oshirmoqda. Tarmoqdagi islohotlar resurslardan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish va importga bog'liqlikni qisqartirishga qaratilgan bo'lib, ayniqsa urug'chilik tizimini mustahkamlash va mahalliy navlar salmog'ini oshirish agrar siyosatning muhim yo'nalishiga aylangan.

Shu bilan birga, mamlakat qishloq xo'jaligi tarkibida dukkakli ekinlar ulushini kengaytirish strategik ahamiyatga ega. Bu ekinlar aholini oqsil manbalari bilan ta'minlashdek ijtimoiy vazifani bajarishdan tashqari, tuproq unumdorligini saqlash va tiklashda muhim agroekologik omil sifatida namoyon bo'ladi. Dunyo bozorida dukkakli ekinlar va ulardan qayta ishlangan mahsulotlarga talabning barqaror o'sib borishi esa O'zbekiston uchun yangi eksport segmentlariga kirib borish imkoniyatlarini kengaytirmoqda [1].

Iqtisodiy nuqtai nazardan dukkakli ekinlar ichki talabni qondirish bilan birga yuqori eksport potensialiga ega mahsulotlar hisoblanadi. Jahonda mosh, no'xat va lo'biyo kabi turlarga talabning yil sayin o'sishi O'zbekiston uchun yangi tashqi bozorlarga chiqish imkonini oshirmoqda. Bunda mahsulotlarni chuqur qayta ishlash darajasini oshirish orqali qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, agrar tarmoq daromadini ko'paytirish va eksport strukturasini diversifikatsiya qilish imkoni paydo bo'ladi.

Shuningdek, dukkakli ekinlar rivoji resurs tejankor agroteknologiyalarni joriy etish, tuproqni tabiiy azot bilan boyitish va hosildorlik barqarorligini ta'minlash orqali qishloq xo'jaligining ekologik va iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi. Bunday ko'p qirrali samaralar ushbu ekin turlarini rivojlantirishni milliy agrar siyosatda strategik vazifaga aylantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotlarda urug'chilik tarmog'i qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan strategik omil sifatida qayd etiladi. Tadqiqotlarda import urug'lariga yuqori darajada bog'liqlik tarmoqning uzoq muddatli barqarorligiga xavf solishi, tashqi shoklarga sezgirlikni kuchaytirishi va ishlab chiqarish xarajatlarini oshirishi ta'kidlanadi. Shu bois, ichki seleksiya maktabini rivojlantirish, mahalliy navlarni yaratish va urug' yetishtirish infratuzilmasini mustahkamlash xavflarni kamaytirishning asosiy yo'li sifatida qaraladi. Xalqaro tajriba ham shuni tasdiqlaydi: mahalliy genetik resurslardan foydalanish, sertifikatlangan urug'lar ulushini oshirish va innovatsion agroteknologiyalarni joriy qilish milliy agrar tizim barqarorligini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, adabiyotlarda dukkakli ekinlar agroekologik barqarorlikni ta'minlashdagi o'рни alohida ta'kidlanadi. Dukkakli ekinlar tuproqda biologik azot to'planishini ta'minlashi orqali keyingi ekinlarning hosildorligini oshiradi. Ilmiy manbalarga ko'ra, "dukkakli ekinlar atmosfera azotini o'zlashtirishi va tuproqning azot bilan ta'minlanishini sezilarli darajada yaxshilashi" tuproq unumdorligining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [2]. Azotning biologik fiksatsiyasi har yili gektariga o'rtacha 100–300 kg, ayrim sharoitlarda undan ham ko'proq azot qo'shishi mumkinligi qayd etilgan [3].

Bu jarayon ikki strategik yo'nalishni bir nuqtada birlashtiradi, ya'ni sifatli urug' materialidan foydalanish – yuqori hosildorlik va barqaror ishlab chiqarish uchun baza yaratadi hamda dukkakli ekinlarning azot to'plash xususiyati – agrotizimning tabiiy unumdorligini oshirib, mineral o'g'itlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi.

Shu tariqa, adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, urug‘chilik tarmog‘ini rivojlantirish va dukkakli ekinlar yetishtirishni kengaytirish bir-birini to‘ldiruvchi omillar bo‘lib, qishloq xo‘jaligining iqtisodiy va ekologik barqarorligini ta‘minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida O‘zbekistondagi urug‘chilik bozorining hozirgi holati, import dinamikasi, yetishtirish quvvatlari va davlat dasturlari o‘rganildi. Statistik ma‘lumotlar asosida taqqoslash, dinamik tahlil, tarmoq rivoji yo‘nalishlarini baholash usullari qo‘llanildi. Shuningdek, xorijiy amaliyot bilan mahalliy ehtiyojlar o‘rtasidagi moslik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash maqsadida agrar sohada ishlab chiqarish hajmlarining barqaror o‘sishi kuzatilmoqda. Xususan, dukkakli don ekinlari ham 2012–2024 yillar davomida izchil o‘shish tendensiyasini namoyon etdi. Respublika miqyosida dukkakli mahsulotlarni yetishtirish dinamikasini yildan yilga oshish tendensiyasiga ega bo‘lishi amalga oshirilgan qishloq xo‘jaligi islohotlari samarasini, shuningdek sohadagi modernizatsiya jarayonlarining tizimli ravishda ijobiy natija berganini ko‘rsatadi.

1-jadval

O‘zbekistonda dukkakli ekinlar yalpi mahsulot dinamikasi, ming tonna [4]

№	Hududlar	Yillar				2024 yildan 2012 yilga nisbati, marta
		2012	2016	2020	2024	
1	O‘zbekiston Respublikasi	46,7	98,4	401,6	555,1	12
2	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1,2	3,1	8,1	40,5	34
3	Andijon viloyati	1,9	2,7	27,1	37,4	20
4	Buxoro viloyati	0,8	1,6	8,7	29	36
5	Jizzax viloyati	1,6	2,5	46,6	59,1	37
6	Qashqadaryo viloyati	2,8	4,3	11,5	22	8
7	Navoiy viloyati	0,5	2,4	7,2	9,6	19
8	Namangan viloyati	15,3	22,3	50,1	96,5	6
9	Samarqand viloyati	4	16,7	112,6	100,5	25
10	Surxondaryo viloyati	3,7	15,2	25,4	37,8	10
11	Sirdaryo viloyati	2,7	3,9	43,3	19,1	7
12	Toshkent viloyati	10,3	14	16	18,5	2
13	Farg‘ona viloyati	1,6	6,4	41,2	79,8	50
14	Xorazm viloyati	0,3	3,3	3,8	5,3	18

Tahlillar ko‘rsatishicha, 2012–2024 yillar dinamikasi dukkakli ekinlar yetishtirish sohasida mamlakat miqyosida keskin o‘shish bo‘lganini ko‘rsatadi: umumiy hosil 12 marta oshgan. Biroq hududlar bo‘yicha manzara juda tebranuvchan. Eng yuqori o‘shish Farg‘ona (50 marta), Jizzax (37 marta), Buxoro (36 marta), Qoraqalpog‘iston

(34 marta) va Samarqand (25 marta) kabi hududlarda kuzatilib, bu yerlarda yangi maydonlarni o'zlashtirish, texnologiyalarni joriy qilish va bozor talabi bilan moslashish ehtiyoji kuchli bo'lganini anglatadi. Hajmlar avvaldan past bo'lgan hududlarda nisbiy o'sish tez kechgan. Aksincha, Namangan (6 marta), Sirdaryo (7 marta), Qashqadaryo (8 marta), Surxondaryo (10 marta) va ayniqsa Toshkent viloyatida o'sish darajasi nisbatan past. Bu hududlarda yetishtirish tizimi ancha erta shakllangan, resurslar oldindan joylashgan bo'lib, yangi o'sish uchun cheklangan maydon va imkoniyat qolganini bildiradi (1-jadval).

Dukkakli mahsulotlarni yetishtirish hajmining o'sishi eksport salohiyatining kuchayishini anglatadi. Bu, avvalo, bozorga yo'naltirish mumkin bo'lgan barqaror tovar zaxirasining shakllanishiga olib keladi. Eksportning amaliy o'sishi uchun qayta ishlash, saralash, fasovka va xalqaro standartlar talablariga muvofiq sertifikatlash infratuzilmasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunga qo'shimcha ravishda logistika, tranzit imkoniyatlari va tashqi bozor kon'yunkturasi eksport kanallarini kengaytiradi.

Shu jihatdan 2022–2024 yillarda dukkakli mahsulotlar hajm jihatidan qattiq silkinishlar bilan ketayotgan bo'lsa-da, qiymat jihatidan barqaror va yuqori o'sish qayd etilyapti. Bu holat qishloq xo'jaligi mahsulotlarida eng muhim unsur xalqaro narxlar, eksport strukturasi va sifat standarti bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Mosh eksportida hajm o'zgarishlarga moyil, ammo qiymat ko'rsatkichi barqaror o'smoqda. Loviyadagi o'sish esa bu segmentda talabning mustahkam ekanini ko'rsatadi, ayniqsa qiymatdagi ikki baravar o'sish loviya mahsulotining yuqori qo'shimcha qiymat manbai sifatida shakllanayotganini anglatadi.

Qizil loviyada bozorning beqarorligi hukmron – bu hududlarda yetishtirish maydoni, iqlim o'zgarishi va xalqaro talabning o'zgarishlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. No'xat esa aksincha, yangi eksport drayveriga aylanmoqda. Bu esa mahsulotda mamlakat uchun strategik imkoniyat paydo bo'layotgani sezilib turibdi.

2-jadval

Respublikada dukkakli mahsulotlar eksport hajmlari dinamikasi [4]

Mahsulot turi	2022 yil		2023 yil		2024 yil	
	Hajmi (tonna)	Qiymati (ming doll)	Hajmi (tonna)	Qiymati (ming doll)	Hajmi (tonna)	Qiymati (ming doll)
Dukkakli mahsulotlar	228 419,2	230 731,1	254 349,8	326 043,1	241 645,5	389 901,7
Loviya	19 693,4	16 528,8	19 825,4	20 720,3	26 651,3	32 593,4
Loviya (qizil)	76 946,8	112 335,9	2 316,8	1 380,9	3 949,1	4 148,9
Mosh	127 447,8	99 018,6	158 762,5	123 956,5	149 513,8	130 650,6
Muzlatilgan loviya	0,0	0,0	0,0	0,0	2,0	0,6
Muzlatilgan no'xat	12,6	17,6	8,8	12,2	6,7	9,5
No'xat	4 318,5	2 830,0	73 435,6	179 972,3	61 333,2	222 405,4
Yasmiq (chechevitsa)	0	0	0,7	0,9	189,5	93,2

Yasmiqning eksportga kirib kelish dinamikasi agrar tarmoqdagi mahsulot tuzilmasining tabiiy kengayishini aks ettiradi. Yangi segmentning paydo bo'lishi, avvalambor, ichki yetishtirish hajmlarining oshib borayotgani, fermer xo'jaliklarining turli xil dukkakli ekinlarga moslashish qobiliyati va xalqaro bozorlardagi talab o'zgarishlariga tez reaksiya qila olishini ko'rsatadi. Hajm hali kichik bo'lishiga qaramay, aynan 2024 yilda eksport qilingan yasmiq mamlakatda mahsulot diversifikatsiyasining amaliy boshlanish nuqtasi sifatida ahamiyat kasb etadi. Bunday segmentlar keyinchalik yuqori qiymatli eksport drayverlariga aylanishi mumkin (2-jadval).

Muzlatilgan dukkakli mahsulotlarning eksportga chiqishi esa agrar sohada qayta ishlash zanjiri rivojlanayotganini anglatadi. Shu tarzda, dukkakli mahsulotlar eksportidagi umumiy dinamika hajmdagi o'zgarishlardan ko'ra qiymatdagi o'sishga tayanmoqda. Bu qo'shimcha qiymat yaratish darajasining oshgani, qayta ishlash sanoati rivojlanayotgani va eksportning marjinali segmentlarga yo'nalganini ko'rsatadi. Rivojlanishning bunday traektoriyasi mamlakat agrar sektorida qiymat zanjirini uzaytirishga, xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarishga va eksport assortimentini kengaytirishga asoslangan yangi model shakllanayotganini anglatadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, urug'chilik tizimini rivojlantirish O'zbekiston qishloq xo'jaligining barqarorligi va eksport salohiyatini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Mahalliy urug'chilik infratuzilmasini yaxshilash, seleksiya ishlarini qo'llab-quvvatlash va texnik bazani mustahkamlash orqali importga bog'liqlik bosqichma-bosqich kamayadi. Ushbu yo'nalishdagi kompleks choralar qishloq xo'jaligi tarmog'ining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Dukkakli mahsulotlar eksporti faqat hajm oshishi emas, balki tarkibiy yangilanish bosqichini boshdan kechirmoqda. Mosh va no'xat kabi an'anaviy kuchli segmentlar barqaror daromad manbai bo'lib qolar ekan, yasmiq va muzlatilgan mahsulotlar kabi yangi tarmoqlar eksport portfelini diversifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu tendensiyalar agrar eksportning sifat jihatidan yangi bosqichga o'tayotganini, mamlakatning xalqaro bozorda raqobatbardoshligi esa mahsulot turlarining kengayishi va qo'shimcha qiymatning oshishi hisobidan mustahkamlanayotganini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2025 yil 8 apreldagi PQ-136-son qarori.
2. Assefa, B. et al. (2021). *Frontiers in Sustainable Food Systems*. DOI: 10.3389/fsufs.2021.767998
3. Peoples, M.B. et al. (2009). *Plant and Soil*, 321(1–2): 1–17. DOI: 10.1007/s11104-009-9990-8
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

UUC: 631.6: 631.8: 628.179 (999.3)

**THEORETICAL PRINCIPLES OF IMPROVING THE AGRICULTURAL
PRODUCT EXPORT SYSTEM****ERGASHEV GIYOS BAKHROM UGLI**

PhD, Associate Professor, Tashkent State Agrarian University

E-mail: giyosergashev60@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-8361-0047

Abstract. This article states that the export of agricultural products plays a very important role in the development of the economy of our republic. Improving the system of export of agricultural products, in turn, requires its specific aspects. To date, many measures are being taken in this regard in the development of the industry. The revival and expansion of traditional consumer markets for wet and processed fruit and vegetable products is one of the main factors in increasing the export potential of Uzbekistan. According to the information of the State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, the foreign trade turnover in the Republic in January-December 2021 is 27.0 billion. 14.0 billion US dollars, including exports. USD and import 13.0 bln. formed the US dollar. The balance of foreign trade turnover is 945.5 mln. amounted to US dollars.

Keywords: export, economic efficiency, export efficiency, agricultural economy, agricultural products.

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishda juda muhim o'rin tutishi qayd etilgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish tizimini takomillashtirish, o'z navbatida, uning o'ziga xos jihatlarini taqozo etadi. Bugungi kunga kelib sohani rivojlantirish borasida bu borada ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ho'l va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarining an'anaviy iste'mol bozorlarini qayta tiklash va kengaytirish O'zbekiston eksport salohiyatini oshirishning asosiy omillaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida respublikada tashqi savdo aylanmasi 27,0 mlrd. AQSH dollari, shu jumladan eksport 14,0 mlrd. AQSH dollari va import 13,0 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi 945,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Kalit so'zlar: eksport, iqtisodiy samaradorlik, eksport samaradorligi, qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, qishloq xo'jaligi mahsulotlari.

Аннотация. В данной статье говорится, что экспорт сельскохозяйственной продукции играет важнейшую роль в развитии экономики нашей республики. Совершенствование системы экспорта сельскохозяйственной продукции, в свою очередь, требует разработки конкретных аспектов. На сегодняшний день в этом направлении принимается множество мер по развитию отрасли. Возрождение и расширение традиционных рынков сбыта для вяленой и